



*Odina ABDUNAZAROVA,*  
*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti doktranti*  
*E-mail:abdunazarovaodina25@gmail.com*

*Namangan davlat texnika universiteti professori, pedagogika fanlari doktranti (DSc) O.S. Abdullayeva taqrizi asosida*

## NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA ZARURIY YONDASHUVLAR, TAMOYILLAR VA VOSITALAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada nutqiy kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari, zamonaviy yondashuvlari, didaktik tamoyillari hamda samarali vositalari tahlil qilinadi. Unda kommunikativ, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarning nutq rivojida o'rni yoritiladi. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli vositalarning nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** nutqiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, lingvodidaktika, kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, AKT, nutq rivoji, til o'qitish metodikasi, interaksiya, individual yondashuv.

## НЕОБХОДИМЫЕ ПОДХОДЫ, ПРИНЦИПЫ И СРЕДСТВА В ФОРМИРОВАНИИ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы формирования речевой компетенции, современные подходы, дидактические принципы и эффективные средства её развития. Освещается роль коммуникативного, компетентностного и деятельностного подходов в развитии речи. Также раскрывается значение интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий и цифровых средств в формировании речевой компетенции.

**Ключевые слова:** речевая компетенция, коммуникативная компетенция, лингводидактика, коммуникативный подход, компетентностный подход, интерактивные методы, цифровые технологии, ИКТ, развитие речи, методика преподавания языка, интеракция, индивидуальный подход.

## NECESSARY APPROACHES, PRINCIPLES, AND TOOLS IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE

Annotation

This article analyzes the theoretical foundations of developing speech competence, modern approaches, didactic principles, and effective tools. It highlights the role of communicative, competency-based, and activity-oriented approaches in speech development. The importance of interactive methods, information and communication technologies, and digital tools in the development of speech competence is also discussed.

**Keywords:** speech competence, communicative competence, linguodidactics, communicative approach, competency-based approach, interactive methods, digital technologies, ICT, speech development, language teaching methodology, interaction, individual approach.

**Kirish.** Nutqiy kompetensiya zamonaviy ta'lim paradigmasining markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, u shaxsning til vositalari orqali fikrni aniq, mantiqiy va kommunikativ vaziyatga mos ifodalash qobiliyatini anglatadi. Yevropa lingvodidaktikasida nutqiy kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. D. Hymes bu borada shunday ta'kidlaydi: "Tilni bilish grammatik qoidalarni bilish emas, balki uni ijtimoiy vaziyatda to'g'ri qo'llay olishdir" [1].

Shu nuqtayi nazardan nutqiy kompetensiya nafaqat til bilimlari, balki ularni real muloqotda qo'llash, ijtimoiy va madaniy kontekstga moslashtirish qobiliyati sifatida shakllanadi.

Bugungi ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning kuchayishi nutqni faqat grammatik qoidalar majmui sifatida emas, balki real kommunikativ faoliyat sifatida o'rganishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan nutqiy kompetensiyani shakllantirish masalasi metodika, psixologiya va lingvodidaktikaning dolzarb yo'nalishiga aylangan.

**Adabiyotlar tahlili.** Nutqiy kompetensiya tushunchasi jahon lingvodidaktikasida keng o'rganilgan. M.Canale va M.Svain kommunikativ kompetensiyani to'rt asosiy


komponentga ajratadi: grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiya [2]. Ularning fikricha, tilni o'rganish jarayoni faqat grammatik bilimlarni egallash bilan cheklanmaydi, balki nutqiy strategiyalarni qo'llay olish va muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. D. Larsen-Freeman esa til o'rganishni dinamik tizim sifatida ko'rib, "til – bu qoidalar majmui emas, balki doimiy o'zgaruvchi murakkab tizimdir" deya ta'kidlaydi [3]. Bu yondashuv nutqni statik emas, balki faol jarayon sifatida o'rganishni talab etadi.

Shu asosda nutqiy kompetensiya lingvistik bilim, diskursiv malaka, pragmatik moslashuv va sotsiolingvistik ongning uyg'unlashgan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Lingvistik komponent til tizimini bilishni, diskursiv komponent matn yaratish va uni bog'lashni, pragmatik komponent esa nutqni vaziyatga mos qo'llashni anglatadi. Sotsiolingvistik jihat esa tilning ijtimoiy muhitga mos ishlatilishini belgilaydi. Demak, nutqiy kompetensiya faqat til qoidalarni bilish emas, balki ularni hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olish bilan bog'liq murakkab ko'nikmalar tizimidir.

O'zbek metodistlari ham nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, A.G'ulomov "til o'qitish jarayonida nutq faoliyati markaziy o'rinda turadi" deb ta'kidlaydi [4]. "Nutqni rivojlantirish o'quvchining tafakkur faoliyatini rivojlantirish bilan

chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayon uzluksiz va tizimli olib borilishi zarur" [5].

Asosiy qism. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda bir nechta metodik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular o'zaro bir-birini to'ldiradi:



Kommunikativ yondashuv jahon metodikasida eng samarali yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etiladi. H.Viddovson fikricha, "tilni o'rganish uning tuzilishini bilish emas, balki mazmun yaratish jarayonidir" [6]. Bu yondashuvda o'quvchi real muloqot vaziyatlarida ishtirok etadi. Dialoglar, rolli o'yinlar va muhokamalar nutqni tabiiy rivojlantiradi.

Kompetensiyaviy yondashuvda asosiy e'tibor bilimni amaliy faoliyatga aylantirishga qaratiladi. J.Richards va T.Rodgers ta'kidlashicha, "til o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchini real kommunikativ vaziyatlarda mustaqil ishlay oladigan shaxsga aylantirishdir" [7]. Bu yondashuv nutqni real hayotiy faoliyat bilan bog'laydi va o'quvchini mustaqil kommunikator sifatida shakllantiradi.

Zamonaviy Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan CEFR tizimida faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv asosiy o'rin egallaydi. Unda o'quvchi "ijtimoiy aktyor" sifatida ko'riladi. Z.Dörnyei motivatsiya haqida shunday yozadi: "Til o'rganish jarayonida muvaffaqiyatning eng muhim omili ichki motivatsiyadir" [8]. Bu esa nutqiy

faoliyatni kuchaytirishda psixologik omilning muhimligini ko'rsatadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda esa har bir o'quvchining individual xususiyatlari inobatga olinadi. Nutq darajasi, psixologik holat va qiziqishlar asosida differensial topshiriqlar beriladi, bu esa nutq rivojlanishini yanada samarali qiladi.

Jahon metodistlari nutq o'qitishda bir qator didaktik tamoyillarni asosiy deb hisoblaydi. Krashenning "Input Hypothesis" nazariyasiga ko'ra, til o'rganish tushunarli input orqali amalga oshadi: "O'quvchi o'z darajasidan biroz yuqori bo'lgan til materialini tushunsa, til tabiiy shakllanadi" [9]. Bu nazariya nutqni rivojlantirishda tushunarli, lekin biroz murakkab materiallardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Svain esa "Output Hypothesis" da nutq ishlab chiqarish (gapirish va yozish) til rivojlanishining asosiy omili ekanligini ta'kidlaydi: "Tilni o'zlashtirish faqat eshitish emas, balki uni ishlab chiqarish orqali ham sodir bo'ladi" [10].

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish ma'lum didaktik tamoyillarga asoslanadi:



Ilmiylik tamoyili til o'qitishda ilmiy asoslangan bilimlarga tayanishni talab etadi. Bu tamoyil nutqni o'rgatish jarayonida xatoliklarga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi.

Izchillik tamoyili esa nutqiy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi. Avval soddada, keyin murakkab nutq shakllari o'rgatiladi.

Onglilik va faollik tamoyili o'quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko'radi. O'quvchi nutqni tushunib, ongli ravishda qo'llashi lozim.

Amaliy yo'naltirilganlik tamoyili nutqni hayotiy vaziyatlarda qo'llashga urg'u beradi. O'rganilgan bilimlar faqat nazariyada qolib ketmasligi kerak.

Kommunikativlik tamoyili esa barcha mashqlarni muloqotga yo'naltirishni talab qiladi. Bu tamoyil nutqiy kompetensiyaning asosiy sharti hisoblanadi.


Individual yondashuv tamoyili har bir o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olishni taqozo etadi, chunki nutq rivojlanishi har bir shaxsda turlicha kechadi

Jahon metodikasida nutqni rivojlantirish uchun turli vositalar qo'llaniladi.

Longning "Interaction Hypothesis" nazariyasiga ko'ra, "til interaksiya jarayonida shakllanadi" [11]. Bu interfaol metodlarning ahamiyatini oshiradi.

Shu asosda quyidagi vositalar samarali hisoblanadi: autentik matnlar, real hayotiy dialoglar, audio-video materiallar, raqamli platformalar va simulyatsion mashqlar.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda turli vositalar qo'llaniladi:



An'anaviy vositalar sifatida darsliklar, matnlar, mashq daftarlari va lug'atlar xizmat qiladi. Ular nutqning asosiy til bazasini shakllantiradi.

Interfaol metodlar esa nutqni faollashtiruvchi muhim vositalardan biridir. Aqliy hujum, debat, rolli o'yinlar, klaster

va insert texnologiyalari o'quvchini faol fikrlash va muloqotga undaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nutqni zamonaviy sharoitda rivojlantirish imkonini beradi. Elektron darsliklar, onlayn platformalar va audio-video materiallar

o'quvchilarda talaffuz, tinglab tushunish va yozma nutqni rivojlantiradi.

Nutqiy mashqlar tizimi ham muhim vosita hisoblanadi. Hikoya qilish, matn tuzish, dialog yaratish va taqdimot qilish kabi mashqlar nutqning barcha shakllarini rivojlantiradi.

S. Krashen o'zga tillarni o'qitishda "affective filter" tushunchasini kiritadi. Uning fikricha, "o'quvchining stress darajasi yuqori bo'lsa, til o'zlashtirish sekinlashadi" [12].

Shu sababli o'zga tilli o'quvchilarda nutqni rivojlantirishda qulay psixologik muhit yaratish juda muhimdir.

Jim Kummins esa BICS va CALP farqlanishini kiritadi. Uning fikricha, kundalik muloqot tili tez rivojlansa ham, akademik tilni o'zlashtirish uzoq vaqt talab qiladi [13]. Bu o'zbek tilini o'rganayotgan o'quvchilarda ham nutqiy rivojlanish bosqichma-bosqich kechishini ko'rsatadi.

Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar nutqni rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biriga aylandi. Elektron ta'lim platformalari Moodle, Google Classroom, Edmodo platformalari o'quvchilarga mustaqil ishlash, topshiriqlarni bajarish va yozma nutqni rivojlantirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda sun'iy intellekt asosidagi tizimlar muhim o'rin egallamoqda. Chatbotlar, avtomatik tarjimonlar va nutq tahlil qiluvchi dasturlar o'quvchiga individual yondashuvni ta'minlaydi.

S. Bax fikricha: "Adaptiv tizimlar til o'rganuvchini uning ehtiyojiga mos ravishda boshqaradi va individual rivojlanishni tezlashtiradi" [14].

Sun'iy intellekt asosidagi vositalar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: talaffuzni avtomatik tahlil qilish, grammatik xatolarni aniqlash, nutqni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish, dialog simulyatsiyasi.

Gamifikatsiya – bu ta'lim jarayonini o'yin elementlari bilan boyitish usuli bo'lib, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda juda samarali hisoblanadi. O'yinlar o'quvchilarda motivatsiyani oshiradi, nutqni tabiiy muhitda qo'llashga yordam beradi.

O'yinlar orqali o'quvchi dialog tuzadi, vazifalarni og'zaki bajaradi, tezkor fikrlashni rivojlantiradi, jamoaviy muloqotga kirishadi

Raqamli texnologiyalar nutqiy kompetensiyani quyidagi yo'nalishlarda rivojlantiradi: real kommunikativ muhit yaratadi, mustaqil o'qishni rag'batlantiradi, talaffuzni vizual va audio tahlil qiladi, yozma nutqni avtomatik tekshiradi, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantiradi, o'quvchini global til muhitiga integratsiya qiladi.

**Muammolar va tahlillar.** Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Ko'plab ta'lim muassasalarida yozma mashqlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayrim o'quvchilarda nutqiy faollik pastligi va kommunikativ qo'rquv holatlari kuzatiladi.

Shuningdek, og'zaki nutqqa ajratilgan vaqtning cheklanganligi ham muhim muammo hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarning erkin muloqot qilish qobiliyatini sekinlashtiradi. Ba'zi o'qituvchilarda esa kommunikativ metodlarni qo'llash bo'yicha yetarli tajriba yetishmasligi kuzatiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar eng yuqori samaradorlikka ega. Interfaol metodlar nutq faolligini oshiradi, AKT vositalari esa talaffuz va tinglab tushunishni rivojlantiradi.

**Xulosa.** Nutqiy kompetensiyani shakllantirish zamonaviy lingvodidaktikaning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Jahon metodistlarining ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, kommunikativ, kompetensiyaviy va interaktiv yondashuvlar eng samarali hisoblanadi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, autentik materiallar va individual yondashuv yanada muhim o'rin egallaydi. Nutqni rivojlantirish jarayonida interfaol metodlar va raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi [15]. Kelgusida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun integratsiyalashgan metodik tizimni ishlab chiqish, individual yondashuvni kuchaytirish hamda amaliy mashqlar ulushini oshirish zarur.

#### ADABIYOTLAR

1. Hymes D. On Communicative Competence. – Harmondsworth: Penguin, 1972.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics, 1980.
3. Larsen-Freeman D. Teaching Language: From Grammar to Gramming. – Boston: Heinle, 2003.
4. G'ulomov A. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.
5. Sobirov S. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2002.
6. Widdowson H. Teaching Language as Communication. – Oxford: Oxford University Press, 1978.
7. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
8. Dörnyei Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
9. Krashen S. The Input Hypothesis. – London: Longman, 1985.
10. Swain M. Three Functions of Output in Second Language Learning. – 1995.
11. Long M. The Role of the Linguistic Environment in Second Language Acquisition. – 1996.
12. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon, 1982.
13. Cummins J. Language, Power and Pedagogy. – Clevedon: Multilingual Matters, 2000.
14. Bax S. CALL – Past, Present and Future. – 2013.
15. Abdunazarova O.T. (2024). O'zga tilli o'quvchilarning o'zbek tili bo'yicha nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar. Qurilish va ta'lim, 3, 95-99.